

OILAVIY ZO'RAVONLIKKA QARSHI KURASHDA QONUNCHILIKNING O'RNI

Abduqahhorova Diyoraxon Abdug'affor qizi

Farg'ona yuridik texnikumi "Davlat-huquqiy faoliyati" yo'nalishi
2-kurs 40-24-guruh o'quvchisi.

Muhammadjonova Zuhraxon Azizbek qizi

Farg'ona yuridik texnikumi "Davlat-huquqiy faoliyati" yo'nalishi
2-kurs 40-24-guruh o'quvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21336344>

Annotatsiya. Mazkur maqolada oilaviy (maishiy) zo'ravonlikka qarshi kurashda qonunchilikning o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Unda O'zbekistonda ushbu sohadagi huquqiy bazaning shakllanish bosqichlari, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun qoidalari, himoya orderi instituti, Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga kiritilgan oilaviy zo'ravonlik uchun javobgarlik normalari yoritib beriladi. Shuningdek, sud amaliyoti tahlili asosida qonunchilikni qo'llashdagi mavjud muammolar aniqlanadi hamda ularni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: oilaviy zo'ravonlik, maishiy zo'ravonlik, himoya orderi, xotin-qizlar huquqlari, jinoiy javobgarlik, ma'muriy javobgarlik, profilaktika, jabrlanuvchi, sud amaliyoti, gender tenglik.

THE ROLE OF LEGISLATION IN COMBATING DOMESTIC VIOLENCE

Abstract. This article analyzes the role and significance of legislation in combating domestic violence. It examines the stages of formation of the legal framework in this area in Uzbekistan, the provisions of the Law "On the Protection of Women from Harassment and Violence", the institution of the protection order, and the norms on liability for domestic violence introduced into the Criminal Code and the Code of Administrative Liability. Based on an analysis of judicial practice, the article identifies existing problems in the application of legislation and develops proposals for their elimination.

Keywords: domestic violence, protection order, women's rights, criminal liability, administrative liability, prevention, victim, judicial practice, gender equality.

Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik zamonaviy jamiyatning eng jiddiy ijtimoiy muammolaridan biri hisoblanadi. Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda har uch ayoldan biri jismoniy yoki jinsiy zo'ravonlikka duchor bo'ladi va aksariyat hollarda zo'ravonlik ayolning turmush o'rtog'i tomonidan sodir etiladi. Ushbu muammo O'zbekistonda ham dolzarbligicha qolmoqda va u nafaqat alohida oila, balki butun jamiyat manfaatlariga daxldor hisoblanadi.

Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini oliy qadriyat sifatida e'tirof etilgan. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi boshqa tarzda tazyiqqa duchor etilishi mumkin emas.

Ushbu konstitutsiyaviy norma oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashning huquqiy poydevorini tashkil etadi. Oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashda qonunchilik markaziy o'rin egallaydi.

Aynan qonun zo‘ravnlikning huquqiy ta‘rifini beradi, javobgarlik choralari belgilaydi, jabrlanuvchini himoya qilish mexanizmlarini yaratadi va davlat organlarining vakolatlarini aniqlaydi. Mazkur maqolaning maqsadi – O‘zbekistonda oilaviy zo‘ravnlikka qarshi kurash sohasidagi qonunchilikning shakllanishi, mazmuni va samaradorligini tahlil qilishdan iborat.

O‘zbekistonda oilaviy zo‘ravnlikka qarshi kurash sohasidagi maxsus qonunchilikning shakllanishi 2019-yildan boshlandi. 2019-yil 2-sentabrda “Xotin-qizlarni tazyiq va zo‘ravnlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘RQ-561-sonli Qonun qabul qilindi. Ushbu qonun O‘zbekiston tarixida mazkur sohadagi birinchi maxsus huquqiy hujjat bo‘lib, u xotin-qizlarni turmushda, ish joyida, ta‘lim muassasalarida va boshqa joylarda tazyiq hamda zo‘ravnlikdan himoya qilish munosabatlarini tartibga soladi.

Qonunda tayanch tushunchalarga aniq huquqiy ta‘rif berildi. Xususan, “tazyiq”, “zo‘ravnlik”, “jismoniy zo‘ravnlik”, “ruhiy zo‘ravnlik”, “iqtisodiy zo‘ravnlik”, “jinsiy zo‘ravnlik”, “himoya orderi” kabi tushunchalarning mazmuni ochib berildi. Masalan, ruhiy zo‘ravnlik xotin-qizlarni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha‘nini va qadr-qimmatini kamsitish, shuningdek ularning xohish-irodasini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalanadigan zo‘ravnlik shakli sifatida belgilangan. Bunday aniq ta‘riflar huquqni qo‘llash amaliyoti uchun muhim ahamiyatga ega.

Qonunchilik bazasini takomillashtirishning navbatdagi muhim bosqichi 2023-yil 11-aprelda qabul qilingan “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-829-sonli Qonun bo‘ldi. Ushbu qonun bilan Jinoyat kodeksi 126-1-modda (oilaviy (maishiy) zo‘ravnlik), Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks esa 59-2-modda bilan to‘ldirildi. Bu esa oilaviy zo‘ravnlik uchun alohida jinoiy va ma‘muriy javobgarlik belgilanishini anglatadi.

Islohotlar 2024-yilda ham davom ettirildi. 2024-yil 21-oktabrda qabul qilingan O‘RQ-978-sonli Qonun bilan bolalarga nisbatan oilaviy zo‘ravnlik sodir etganlik uchun javobgarlik belgilandi. Shuningdek, Jinoyat-protsessual kodeksiga oilaviy zo‘ravnlik bilan bog‘liq ishlar yuzasidan yarashuv to‘g‘risidagi ariza faqat sud muhokamasi bosqichida berilishi mumkinligini belgilovchi o‘zgartirish kiritildi. Bu norma jabrlanuvchiga tergov bosqichida bosim o‘tkazish orqali ishni to‘xtatib yuborish holatlarining oldini olishga qaratilgan.

HIMOYA ORDERI INSTITUTI

Jabrlanuvchilarni himoya qilishning eng samarali huquqiy vositalaridan biri sifatida himoya orderi instituti joriy etildi. Himoya orderi – tazyiq va zo‘ravnlikdan jabrlanuvchiga davlat himoyasini taqdim etuvchi, zo‘ravnlik sodir etgan shaxsga nisbatan qonunda belgilangan ta‘sir ko‘rsatish choralari qo‘llanilishiga asos bo‘ladigan hujjatdir. Uning tartibi Qonunning 23-moddasida belgilangan bo‘lib, order jabrlanuvchiga 24 soat ichida beriladi.

Himoya orderi zo‘ravnlik sodir etgan shaxsga nisbatan bir qator cheklovlarni nazarda tutadi: jabrlanuvchi bilan aloqa qilishni taqiqlash; jabrlanuvchi bilan bir xonada birga bo‘lishni taqiqlash; jabrlanuvchini davolash, unga maslahat berish yoki uni maxsus markazga joylashtirish xarajatlarini qoplash majburiyatini yuklash; qurolni saqlash va olib yurishni cheklash.

Ushbu cheklovlar profilaktika inspektori tomonidan har bir holatning xususiyatidan kelib chiqib alohida yoki birgalikda qo'llanilishi mumkin.

Himoya orderi talablarining bajarilishi ustidan nazorat ichki ishlar organi tomonidan amalga oshiriladi, order talablarini buzganlik uchun esa javobgarlik nazarda tutilgan. Amaliyot himoya orderi zo'ravonlik holatlarining takrorlanishini oldini olishda muhim profilaktik chora sifatida o'z samarasini berayotganini ko'rsatmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda tazyiq va zo'ravonlikka uchragan 54 mingdan ortiq xotin-qizga himoya orderi berilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashda qonunchilik hal qiluvchi rol o'ynaydi.

O'zbekistonda so'nggi yillarda ushbu sohada jiddiy huquqiy islohotlar amalga oshirildi: maxsus qonun qabul qilindi, himoya orderi instituti joriy etildi, oilaviy zo'ravonlik uchun alohida jinoiy va ma'muriy javobgarlik belgilandi, bolalarni himoya qilish normalari kiritildi. Bu chora-tadbirlar zo'ravonlikning oldini olish va jabrlanuvchilarni himoya qilish tizimini sezilarli darajada kuchaytirdi.

Shu bilan birga, qonunchilikni yanada takomillashtirish va uni qo'llash amaliyotini yaxshilash bo'yicha quyidagi takliflar ilgari surilishi mumkin. Birinchidan, zaruriy mudofaa institutini oilaviy zo'ravonlik holatlariga to'g'ri qo'llash bo'yicha aniq metodik ko'rsatmalar ishlab chiqish zarur. Ikkinchidan, sudyalari va tergovchilar uchun oilaviy zo'ravonlik ishlari bo'yicha maxsus o'quv dasturlarini joriy etish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, zo'ravonlik sodir etgan shaxslarning xulq-atvorini tuzatish dasturlarini majburiy tartibda qo'llash takroriy huquqbuzarliklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, jabrlanuvchilarga ijtimoiy, psixologik va huquqiy yordam ko'rsatuvchi rehabilitatsiya markazlari tarmog'ini kengaytirish va ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash lozim. Beshinchidan, aholining huquqiy savodxonligini oshirish, zo'ravonlikka nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bo'yicha targ'ibot ishlarini kuchaytirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, oilaviy zo'ravonlik xususiy ish emas, balki butun jamiyatga daxldor muammodir. Uni bartaraf etish faqat qonun normalarini qabul qilish bilan cheklanmaydi, balki ularning samarali ijrosini ta'minlash, huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish va jamiyatda zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini shakllantirishni talab etadi. Shundagina Konstitutsiyada e'lon qilingan inson qadri va daxlsizligi tamoyillari har bir oilada real ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi (yangi tahrir). 2023-yil 30-aprel referendumida qabul qilingan. – Lex.uz: <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-561-son, 2019-yil 2-sentabr). – Lex.uz: <https://lex.uz/docs/-4494709>
3. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-829-son, 2023-yil 11-aprel).

4. O‘zbekiston Respublikasining “Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan himoya qilish choralari kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi Qonuni (O‘RQ-978-son, 2024-yil 21-oktabr). – Lex.uz: <https://lex.uz/docs/-7165389>
5. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (126-1-modda – oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik). – Lex.uz: <https://lex.uz/docs/-111453>
6. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 20-noyabrdagi 30-sonli qarori. – Lex.uz: <https://lex.uz/acts/-1592419>
7. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-yanvardagi 3-son qarori bilan tasdiqlangan “Tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlangan xotin-qizlarga himoya orderini berish, ijrosini ta’minlash va monitoring olib borish to‘g‘risida”gi Nizom.
8. Xolmirzayev O‘., Shamsidinov Z. O‘zbekistonda ayollarga nisbatan maishiy zo‘ravonlik huquqbuzarliklarining sud amaliyotiga doir tadqiqot. – Toshkent : TDYU, 2024.